Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o'zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta'siri	1439
Baratov Sa'dulla Norjigit o'g'li, Jo'rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta'minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdulkarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o'g'li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo'llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o'g'li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaikulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug'urta bozorlarida investisiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	
O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendentsiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	



Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar.....	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafuz Ikrom qizi	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'рни.....	1573
Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
Qurbanboev Jurabek Eruvboevich	
Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish istiqbollari.....	1585
Yuldasheva Saida Nematovna	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari	1600
Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li	
Понятие и типы финансовых шоков: макроэкономический контекст и микроуровневые последствия	1606
Захарова Ирина Борисовна	
Современное состояние оздоровительного туризма в Узбекистане	1611
Сирлибеков Хабибулло Шакарбоевич	
Impact of industrial development on macroeconomic indicators.....	1621
Olchinboyev Otabek Abdusamad ugli	
Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане	1625
Уразов Комил Бахрамович, Хушмуродова Мадина	
Методы оценки деятельности акционерных обществ с учетом инвестиционных рисков.....	1639
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli.....	1645
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies and digital transformation.....	1649
Master's student at Silk Road University	
Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....	1656
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahliliyligini oshirish masalalari	1659
Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li	



“Yashil” iqtisodiyotga o‘tishda xalqaro hamkorlik: O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiyalar	1665
Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo‘jaev Xadyatillo Billoxon o‘g‘li	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O‘zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budget siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
Kambag‘allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash omili sifatida	1683
Tashbaeva Saodatxon Alisherovna	
Финансовые технологии: сущность и задачи	1687
Амонова Хафиза	
O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari.....	1690
O‘rinov Akmaljon Axmadjonovich	
Budget tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba.....	1695
Po‘latov Tirkash Sotiboldiyevich	
“Ichki iste‘mol uchun qayta ishlash” bojxona protseduralarini O‘zbekiston sharoitida qo‘llashning ahamiyati.....	1699
Buranov Husniddin Husenovich, Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich	
To‘qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	1703
Muxiddinova Kamola Sagdullayevna	
O‘zbekiston respublikasida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining rivojlanishini iqtisodiy tahlili	1708
Aysachev Abdulfotix Abdulfazovich	
Kichik biznes korxonalari uchun eksport salohiyatini oshirish yo‘llari va strategiyalar	1714
Mo‘minova Kanizaxon	
Buxoro viloyatida agroklasterni tizimi rivojlantirish yo‘nalishlari va iqtisodiy samaradorligi	1718
Ro‘ziyev Sobirjon Samatovich, Boltayeva Shaxnoz Bebudovna	
Temir yo‘l tizimini modernizatsiya qilishda imitatsion model asosida tahliliy yondashuv.....	1724
Mamasidikov Muxsinjon Musajonovich	
Климатическая политика и «зеленая» трансформация: Торговля углеродными единицами (Углеродная торговля)	1730
Исламов Шохзод Шухрат ўғли	
O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish asosida baholash.....	1738
Arzikulov Otabek Ali o‘g‘li, Xudoyorova Ruhshona Toshpo‘lot qizi	
Ikkilamchi bozorda noturar joy ko‘chmas mulk qiymatini baholashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish	1743
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
O‘zbekiston da yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari	1749
Otaxonova Dinora Musaboy qizi	
Tibbiy xizmatlarning rivojlanish evolutsiyasi va samaradorlik hamda xarajatlari tushunchalarining mohiyati.....	1754
Axmedov Zafarjon A‘zamovich, Karabayev Sanjar Abdusamatovich, Uraqov Shokir Ulashovich	
Kichik biznes korxonalarda sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar	1762
Axmedova Nilufar Shuxratovna, Amirov Zubaydulla Toir o‘g‘li	
Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish yo‘llari	1768
Sharipov Sherzod Shavkatovich	
Paxta-to‘qimachilik klasterlarida buxgalteriya hisobotlarini yuritishning muhim jihatlari	1772
Madartov Bahrom Quvondiqovich	
Aksiyadorlik jamiyatlarida o‘z kapitali hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida yuritishni takomillashtirish.....	1776
Axmedov Latayibxon Mamitxonovich	
Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo‘llari.....	1780
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	



Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish tendensiyalari.....	1785
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
O'zbekiston va islom taraqqiyot banki: hamkorlik va rivojlanish istiqbollari.....	1789
Dilovarxo'jayeva Dilnozaxon Shavkatxo'ja qizi	
Xodimlarni rag'batlantirish tizimida mehnatga haq to'lash	1793
Xamdamov Nuriddin Abdimalikovich	
Mahalliy budget daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o'rni	1797
Kimsanboyeva Maftuna Baxodirovna	
Dunyo mamlakatlarida xorijiy talabalar oqimi tahlili va ta'lim eksportining demografik salohiyati	1802
Abdullayev Javoxir Jaxongirovich	
Davlat qarzini boshqarish amaliyotini takomillashtirish	1809
Djurayev Paxlavonjon Usarovich	
Mintaqada chakana savdoni rivojlantirish istiqbollari.....	1815
Ismoilov Shohjahon O'tkir o'g'li, Abdullayev Ilyos Sultanovich	
Yuk tashish sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish	1819
Omarov Mamanbiy Allabergenovich	
Mathematical statistics in biology and medicine	1826
Vokhidov Alikul, Orazbaeva Ayjamal, Tog'amurotova Jasmina, Turotova Dildora	
"Yashil" energetika salohiyatini ro'yobga chiqarishda xatarlar va muammolar:	
O'zbekiston sharoitida tahlil va yechimlar	1833
Nasretdinov Nodir Tulqinovich	
Aglomeratsiyalar ekologik barqarorligi: koreya respublikasi tajribasi va o'zbekistonda uni qo'llash imkoniyatlari.....	1837
Shohruh Shuhrat o'g'li Mardonov	
Sanoat sohasida energiya samaradorligini oshirishning iqtisodiy va ekologik afzalliklari.....	1843
Iminov Farxodjon Tohirjonovich	
Современные принципы и дальнейшее совершенствование налогового администрирования в узбекистане.....	1848
Буранова Лола Вахобовна, Рахимова Шахло Ражапбоевна	
Роль малого и частного бизнеса в инновационном развитии экономики узбекистана: сравнительно-аналитический подход	1858
Мадраимова Согдиана Равильевна	
Sayyohlarning shikoyatlarini ko'rib chiqish va ularning huquqiy huquqlarini tiklash mexanizmlari	1864
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Sanoat korxonalarida inqozga qarshi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish	1869
Muxammadov Umarjon Muxammad o'g'li	
Xalqaro kompaniyalarda Big Data va biznes jarayonlarini innovatsion boshqarish	1885
To'g'onov Ibrohimxo'ja, Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li	
Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligi sug'urtasini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	1889
Darxanova Umida	
Tijorat banklarida moliyaviy injiniring konsepsiyasini mustahkamlashni takomillashtirish	1895
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich	
O'zbekistonda aholi farovonligini ta'minlash yo'llari	1902
Ibragimov Elmurod Gulboynor o'g'li	
"Uzsuvta'minot" aj tizim tashkilotlarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil etish uchun hisob tizimining xususiyatlari.....	1906
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich	
Ways to develop and stimulate innovative activity of the enterprise	1909
U. Yusupov, Ye Junjiye	
Трансформация мировой торговли: путь от протекционизма к свободному рынку на примере узбекистана.....	1914
Олимова Насиба Акмаловна, Камилова Наргиза Абдукахоровна	



Xalqaro tajribada mulkni qayta baholash metodlari: O'zbekiston uchun moslashtirish imkoniyatlari.....	1920
Xadjayev Kamoliddin Fazliddinovich	
O'zbekistonda professional futbol klublarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish	1924
Mirzayev Ulug'bek Abdusattarovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarining huquqiy asoslari.....	1931
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarishni tashkil etish va innovatsion rivojlanish tendensiyalari.....	1937
Haqberdiyev Ulug'bek Nasrullo o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida biznes ekotizimini takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1944
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
The impact of intensive urbanization in tashkent on economic stability, environmental conditions, and demographic processes.....	1949
Khandamirdzhanova B.M., Shoislomova Komila Batyrovna	
Barqaror rivojlanish va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari	1956
Maksudova Shaxzoda	
Ish bilan bandlik darajasiga makroiqtisodiy omillar: aholi jon boshiga yaim, inflatsiya, oliy ta'lim bilan qoplanish darajasining ta'sirini baholash	1961
Usmonov Ibrat Bobomurod o'g'li	
Mintaqaviy iqtisodiyotlarda kapital qo'yimalarning determinantlari: qoraqalpog'istonda aholi va byudjet daromadlarini ekonometrik o'rganish.....	1966
Sarsenbayev Baxitjan Abdulgaziyevich, Kengesbayeva Suliuxan Maxsetbay qizi, Kengesov Diyorbek Umidovich	
Klasterlash asosida xizmat ko'rsatishni rivojlantirishning muhim xususiyatlari	1970
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Rabbimov Abror Mehriddin o'g'li	
Bugungi kunda inson kapitalidan to'g'ri foydalanish	1975
Dushaboyev Lazizjon Baxrom o'g'li	
Ta'minot zanjirida 4PL: o'zbekistondagi o'rni, kamchiliklari va rivojlanishi.....	1978
Ramazonqulov Sardorbek Hamroqulovich	
Urban aglomeratsiyalar sharoitida yer osti inshootlariga ta'sir etuvchi geologik xavflarni kompleks baholash.....	1983
Irgashev Shavkatbek Turdiyevich	
Hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik indikatorlarini ishlab chiqish va baholash usullari.....	1987
Ibragimov Baxrom Baxodirovich	
Роль кооперации и агрокластеров в повышении эффективности мясомолочного производства	1991
Абдуллаев Жасурбек Абдижабборович	
Markaziy osiyo davlatlarida qishloq xo'jaligi sektorining rivojlanishi va uning iqtisodiy ahamiyati	1996
Voxidova Mehri Xasanovna, Xolxo'jayev Eldorxo'ja G'olibjon o'g'li	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron hujjat aylanishining samaradorligini rivojlantirish	2002
Baxtiyorova Dildora	
Moliyaviy institutlarning yashil kredit siyosati	2008
Sotivoldiyev Asadulloh Axadjon o'g'li	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini innovatsion boshqarish usullari	2012
Ismatov Olimjon Aminjonovich	
Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishning muommolarini mahallabay ishlash tizimini takomillashtirish	2016
Abdualimov Xabibullo Ne'matullayevich	
Axborot ochiqligining korporativ boshqaruvdagi roli va investorlarni jalb qilishdagi ta'siri	2023
Shukurova Xilolaxon Darvinxo'ja qizi, Shukurov Jakhongir Sa'dulla o'g'li	
Экономические основы развития и повышения эффективности торговых услуг в узбекистане	2027
Мусурмонова Мухлиса Самандар кизи	



Ijtimoiy sohani rivojlantirishda davlat budget xarajatlaridan samarali foydalanish yo'llari	2032
Ajibayeva Raiya Maxsutovna	
Avtomobil chegara bojxona postlarida bojxona ma'murchiligini yanada takomillashtirish yo'llari	2036
Raxmonova Nargiza Rashidovna	



AVTOMOBIL CHEGARA BOJXONA POSTLARIDA BOJXONA MA'MURCHILIGINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Raxmonova Nargiza Rashidovna

Bojxona instituti katta o'qituvchisi
ORCID: 0009-0003-2274-254X
nargiza.raxmonova.r@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi avtomobil chegara bojxona postlari faoliyatini yanada takomillashtirish zarurati va yo'nalishlari tahlil qilinadi. Chegara postlarining bojxona ma'murchiligidagi o'rni, tashqi savdo jarayonlarini soddalashtirishdagi funksiyasi, shuningdek, ularning o'tkazuvchanlik salohiyatiga ta'sir etuvchi omillar ilmiy asosda o'rganilgan. Tahlillar natijasida tirbandliklar, ortiqcha byurokratik to'siqlar va texnologik kamchiliklar aniqlangan. Ilg'or xorijiy tajribalar asosida, bojxona postlari samaradorligini oshirish, logistika oqimlarini tezlashtirish, fuqaro va transport vositalari harakatini erkinlashtirishga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan. Mazkur tadqiqot chegara postlarining funksional yuklamasini kamaytirish va bojxona jarayonlarini optimallashtirishda amaliy ahamiyatga egadir.

Kalit so'zlar: bojxona ma'murchiligi, chegara postlari, logistika samaradorligi, o'tkazuvchanlik omillari, tirbandlik, tashqi savdo.

Abstract: This article examines the enhancement of operational efficiency at Uzbekistan's automobile border customs posts as a means to improve customs administration. The study explores the posts' role in facilitating cross-border trade and evaluates the infrastructure and throughput capacity, identifying key limiting factors such as bureaucratic barriers and technological delays. Based on international best practices, the article proposes scientifically grounded recommendations aimed at reducing congestion, optimizing logistics flows, and improving the movement of individuals and vehicles. The findings have practical implications for strengthening customs efficiency and minimizing procedural burdens at border checkpoints.

Key words: customs administration, border posts, logistics efficiency, throughput factors, congestion, foreign trade.

Аннотация: В статье рассматриваются направления совершенствования деятельности автомобильных пограничных таможенных постов Республики Узбекистан. Раскрыта их роль в системе таможенного администрирования и упрощении внешнеэкономических операций. Проведён анализ состояния инфраструктуры и выявлены основные факторы, влияющие на пропускную способность постов, включая бюрократические барьеры и технологические ограничения. С учетом международного опыта предложены научно обоснованные рекомендации по снижению заторов, повышению эффективности логистических потоков и обеспечению бесперебойного движения граждан и транспорта. Результаты исследования имеют прикладное значение для оптимизации работы таможенных органов на границе.

Ключевые слова: таможенное администрирование, пограничные посты, эффективность логистики, пропускная способность, заторы, внешняя торговля.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning kengayib borishi tovar va moddiy boyliklarning chegara hududlari orqali harakatlanishini taqozo etadi. Natijada eksport, import va tranzit hajmlarining ortishi kuzatilmoqda. Bu esa o'z navbatida har bir davlat uchun chegara bojxona postlari ish



faoliyatining samaradorligini oshirish, transport vositalari va yo'lovchilar tirbandliksiz o'tishini ta'minlash zaruratini yuzaga keltiradi.

Bojxona organlari zimmasiga ikki asosiy, ko'pincha o'zaro qarama-qarshi vazifalar yuklatilgan: bir tomondan, xalqaro savdoni yengillashtirish va bojxona rasmiylashtiruvini soddalashtirish; boshqa tomondan esa, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, kontrabanda va kontrafakt mahsulotlarning kirib kelishining oldini olish, shuningdek, bojxona to'lovlarini to'liq va o'z vaqtida undirish. Bu vazifalarni bir vaqtda muvaffaqiyatli amalga oshirish bojxona tizimidan yuqori malaka va samarali boshqaruvni talab qiladi.

Xalqaro miqyosda bojxona tizimining ochiqligi va samaradorligini baholashda bir qator tashkilotlar – xususan, Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Jahon savdo tashkiloti va Jahon bojxona tashkiloti – tomonidan ishlab chiqilgan mezonlar muhim ahamiyatga ega. Jumladan, Jahon banki muntazam ravishda mamlakatlarning Logistika samaradorligi indeksini (Logistics Performance Index, LPI) baholaydi. Ushbu indeksda bojxona samaradorligi alohida yo'nalish sifatida e'tiborga olinadi. 2023-yilgi natijalarga ko'ra, O'zbekiston mazkur reytingda 88-o'rinni egallagan.

O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha Logistika samaradorligi indeksida, xususan bojxona rasmiylashtiruvini samaradorligi ko'rsatkichi bo'yicha, kamida 55-o'ringa ko'tarilishi davlat bojxona xizmati oldiga qo'yilgan muhim strategik maqsad sifatida belgilangan [1].

Shu bois, chegara bojxona postlari faoliyatini takomillashtirish, ularning o'tkazuvchanlik salohiyatini oshirish va ilg'or tajribalarni joriy etish orqali bojxona ma'murchiligini optimallashtirish masalalari bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Chegara bojxona postlarida tartib-taomillarni soddalashtirish orqali tashqi savdoni yengillashtirish va bojxona ma'murchiligini takomillashtirish masalalari butun dunyo bo'ylab xalqaro tashkilotlar, olimlar hamda tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilmoqda. Bu yo'nalishda turli atamalar — “Skoridirovannoye upravleniye granitsami”, “Kompleksnoye upravleniye granitsami” va “Coordinated Border Management” kabi iboralar bilan konseptual izlanishlar olib borilmoqda.

Masalan:

H. Allende bojxona ma'murchiligini quyidagicha ta'riflaydi: “Bojxona ma'murchiligi – bu bojxonaga oid siyosatni ishlab chiqish, tegishli qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash, boj va soliqlarni undirish, jamiyat va iqtisodiyotni himoya qilishdan iborat” [2].

Jahon banki tomonidan tayyorlangan “Customs Modernization Handbook” kitobida bojxona ma'murchiligi savdoni yengillashtirish va to'lovlarni undirishda muhim rol o'ynashi ta'kidlangan [3].

Professor Odd-Xelge Feldstad fikricha, samarali bojxona ma'murchiligi korrupsiyaga qarshi kurashda shaffoflik va halollikni ta'minlaydi, shuningdek savdoni kengaytirish hamda milliy xavfsizlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi [4].

Rossiyalik olim Yu. A. Kroxina esa bojxona ma'murchiligini quyidagicha tavsiflaydi: “Bojxona ma'murchiligi – bu bojxona organlarining chegara orqali olib o'tiladigan tovarlar ustidan nazoratni amalga oshirishi, bojxona to'lovlarini undirishi hamda bojxona qonunchiligiga rioya etilishini ta'minlashga qaratilgan faoliyatdir” [5].

I. V. Milshina (Rossiya) bojxona ma'murchiligi atamasining umumqabul qilingan yagona ta'rifi mavjud emasligini bildiradi. U bu tushunchani quyidagilarni o'z ichiga oluvchi majmua sifatida ko'rsatadi: tovarlarning olib o'tilishi, bojxona rejimlariga joylashtirilishi va u bilan bog'liq operatsiyalar, bojxona to'lovlari, infratuzilma va boshqa faoliyat yo'nalishlari [6].

Rossiya Bojxona akademiyasi rektori Mantusovning fikricha, “Ma'murchilik – bu yuqori darajadagi rahbarlik qilish, menejment esa – o'rta va quyi pog'onalarda boshqaruvdir. Shu sababli, ‘bojxona ma'murchiligi’ tushunchasi ‘bojxona menejmenti’ga nisbatan kengroq mazmunga ega”.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida umumilmiy tadqiqot usullaridan – funksional yondashuv, taqqoslash va qiyosiy tahlil, induksiya hamda deduksiya usullaridan foydalanildi. Mavzu doirasida ilg'or xorijiy tajribalar chuqur o'rganilib, ularning tahlili asosida O'zbekiston Respublikasida tashqi savdoni rivojlantirish jarayonida bojxona ma'murchiligini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Bojxona ma'murchiligi” tushunchasining normativ hujjatlarda qo'llanishi O'zbekistonda ilk bor 2023-yildan boshlangan. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 11-martdagi “O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali o'tkazish punktlarida ikki yo'lakli tizimni qo'llash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash



haqida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali o‘tkazish punktlarida ikki yo‘lakli va masofaviy bojxona nazorati tizimlarini qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 814-sonli¹ qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishga oid 363-sonli qarori bojxona ma‘murchiligini soddalashtirishga qaratilgan huquqiy asos bo‘lib xizmat qildi [7].

O‘zbekistonda bojxona ma‘murchiligiga oid ilmiy tahlillar, asosan, davlat hujjatlari va amaldagi qonunchilikka tayanadi. Jumladan, “Bojxona ma‘muriyatchiligi” kitobi muallifi Suyunov o‘z asarida bojxona ma‘murchiligini quyidagicha izohlaydi: “Bojxona ma‘murchiligi – bu bojxona organlarining tashkil etilishi, yuritilishi, vakolatlari va funksiyalari davlat tomonidan belgilangan tartibda amalga oshirilishini ifodalaydi” [8].

Toshkent davlat yuridik universiteti va Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti olimlari esa “bojxona ma‘murchiligi”ni quyidagicha ta’riflaydi: “Bojxona ma‘murchiligi – bu bojxona organlarining tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish, bojxona to‘lovlarini undirish, kontrabandaga qarshi kurashish va bojxona qonunchiligiga rioya etilishini ta’minlashga qaratilgan faoliyatidir”.

Tadqiqot davomida O‘zbekiston Respublikasida avtomobil chegara bojxona postlari misolida bojxona ma‘murchiligini soddalashtirish yo‘nalishlari o‘rganildi. Tashqi savdo operatsiyalari, xalqaro tovar oqimining tez va xavfsiz harakatlanishini ta’minlash, shuningdek iqtisodiy xavfsizlikni kuchaytirishda bojxona postlarining o‘rni beqiyosdir. Ayniqsa, chegara hududlarida joylashgan bojxona postlari nafaqat bojxona to‘lovlarini undirish, balki qonuniy va noqonuniy import-eksport, kontrafakt mahsulotlar, narkotik vositalar va boshqa xavfli tovarlarning tranzitini nazorat qilishda strategik ahamiyat kasb etadi.

2025-yil holatiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan 32 ta chegara bojxona posti mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos geografik joylashuv va funksional xususiyatlarga ega (1-jadval).

1-jadval. Tadqiqotning tasviriy statistikasi.

Variable	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max
Kunlik avto	32	281.423	292.591	0	972.732
Fuqarolar soni	32	1285731.2	2188692.7	0	11495171
Huqubuzarlik soni	32	176.25	383.431	1	1998
Xodimlar soni	32	39.094	28.312	13	104
IKM va Z-portal soni	32	.469	.621	0	2
Yo‘laklar soni	32	3.969	2.682	2	11
Undirilgan to‘lov	32	14060.472	36341.019	0	165312.59

1-jadvalda tadqiqot doirasida olingan asosiy o‘zgaruvchilarning tasviriy statistikasi (descriptive statistics) keltirilgan. “Kunlik avto” o‘zgaruvchisi – ya’ni bojxona postlari orqali har kuni o‘tgan avtomobillar soni – bo‘yicha o‘rtacha qiymat 281 ta avtomobilni tashkil etadi. Bu esa postlar o‘rtasida harakat intensivligida sezilarli tafovut mavjudligini ko‘rsatadi (standart og‘ish ≈ 292). Minimal qiymat 0 bo‘lib, ayrim postlarda harakat deyarli kuzatilmagan bo‘lsa, maksimal qiymat 972,7 ga teng bo‘lib, boshqa postlarda transport oqimi nihoyatda yuqori ekanini ko‘rsatadi.

“Fuqarolar soni” o‘zgaruvchisi bo‘yicha o‘rtacha aholi soni 1,2 million kishini tashkil etadi. Standart og‘ish 2,1 birlikni tashkil qilgani sababli, bu ko‘rsatkich postlar joylashgan hududlar demografik xususiyatlari – masalan, poytaxt va chekka hududlar o‘rtasidagi farq – bilan izohlanadi.

Xodimlar soni bo‘yicha o‘rtacha qiymat 39 nafarni tashkil etib, bojxona postlarining xizmat ko‘rsatish quvvatini aks ettiradi. Minimal qiymat 13 nafar, maksimal esa 104 nafar bo‘lib, bu resurslar taqsimoti va ish yuklamasidagi sezilarli tafovutlarni ifodalaydi.

“IKM Z-portal” tizimidan foydalanuvchilar soni bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 0,469 ni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich postlarning aksariyatida raqamlashtirilgan xizmatlarning yetarli darajada joriy etilmaganini anglatadi. Maksimal qiymat 2 bo‘lib, ayrim postlarda bu tizim samarali faoliyat yuritayotganini ko‘rsatadi.

“Huquqbuzarliklar soni” bo‘yicha o‘rtacha 176 ta holat qayd etilgan bo‘lsa, maksimal qiymat 1998 taga yetadi. Bu holat ayrim hududlarda nazorat darajasi pastligi yoki aholi zichligining yuqoriligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

“Yo‘laklar soni” o‘rtacha 4 ta bo‘lib, maksimal qiymat 11 taga teng. Bu ko‘rsatkich bojxona postlarining o‘tkazuvchanlik quvvatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Hududlar kesimida kunlik avtomobil oqimi sezilarli darajada farq qiladi. Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, Yashnobod tumani eng yuqori yuklama (taxminan 1000 ta avto) bilan ajralib turibdi. Bu esa ushbu hududda

1 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali o‘tkazish punktlarida ikki yo‘lakli va masofaviy bojxona nazorati tizimlarini qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 814-sonli qaror: <https://lex.uz/docs/-3377208>




transport oqimi yuqoriligi, iqtisodiy faollik va logistik markazlar mavjudligidan dalolat beradi.

Shuningdek, Do'stlik (Andijon), G'ishtko'prik, Qo'qon va Farg'ona tumanlarida ham yuqori transport oqimi (600–800 oralig'ida) kuzatilgan bo'lib, bu hududlarning iqtisodiy va demografik faol zonalar ekanligini ko'rsatadi.

Aksincha, Sayxunobod, Sardoba, Xovos va Yangiyer tumanlarida kunlik avtomobillar harakati juda past (100 dan kam), bu esa ushbu hududlarda transport yuklamasi past va infratuzilma zichligi nisbatan sust ekanligidan dalolat beradi.

Mazkur farqlanishlar hududlarning iqtisodiy faoliyati, aholining joylashuvi va infratuzilma rivojlanish darajasiga bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Shu asosda investitsion qarorlar qabul qilishda avtomobil oqimi indikatoridan indikator sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir (1-rasm).



1-rasm. Postlar kesimida kunlik avto dinamikasi grafigi.

Postlar o'rtasida kuzatilgan bu sezilarli tafovut bir necha omillar bilan izohlanadi. Jumladan, yirik shaharlar va xalqaro avtomobil yo'llariga yaqinlik, logistik markazlarning mavjudligi, shuningdek, aholi zichligi ushbu tafovutga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, ayrim postlar asosan yuk tashish uchun ixtisoslashgan bo'lsa, boshqalar yo'lovchi oqimini boshqarish vazifasini bajarmoqda. Shu bois, har bir post bo'yicha individual strategik rejalashtirish va infratuzilma bo'yicha investitsiya yondashuvi zarurligi yuzaga chiqmoqda.

2-jadvalda keltirilgan Pirson juft korrelatsiya testi natijalari "kunlik avtomobil oqimi" (kunlik_avto) bilan boshqa asosiy omillar o'rtasidagi chiziqli bog'liqlik darajasini ko'rsatadi. Natijalarga ko'ra:

Fuqarolar soni bilan bog'liqlik ($r = 0,556$; $p = 0,001$);

Huquqbuzarliklar soni bilan bog'liqlik ($r = 0,547$; $p = 0,001$);

Xodimlar soni bilan bog'liqlik esa ($r = 0,637$; $p = 0,000$) darajasida kuzatilmoqda.

Bu ko'rsatkichlar statistik jihatdan ahamiyatli bo'lib, ularning har biri "kunlik avto" o'zgaruvchisi bilan musbat korrelyatsiyaga ega ekanini bildiradi. Aholi sonining ko'pligi, huquqbuzarliklarning ortishi va xodimlar sonining ko'payishi bojxona postlari orqali harakatlanayotgan avtomobillar hajmiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Xususan, xodimlar soni bilan bog'liqlik koeffitsienti ($r = 0,637$) eng yuqori bo'lib, bu boshqaruv resurslari va transport oqimi o'rtasida yaqqol va kuchli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Bu holat postlar samaradorligini oshirishda inson resurslarini oqilona taqsimlash muhimligini tasdiqlaydi (2-jadval).

2-jadval. Pirson juft korrelatsiya testi.

Variables	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)	(6)
(1) Kunlik_avto	1.000					
(2) Fuqarolar_soni	0.556*	1.000				
	(0.001)					
(3) Huquqbuzarlik_soni	0.547*	0.699*	1.000			



	(0.001)	(0.000)				
(4) Xodimlarsoni	0.637*	0.489*	0.528*	1.000		
	(0.000)	(0.004)	(0.002)			
(5) IKM_Z-portal	-0.122	-0.185	-0.178	-0.239	1.000	
	(0.507)	(0.312)	(0.330)	(0.187)		
(6) Yo'laklarsoni	-0.240	-0.161	-0.216	-0.114	0.667*	1.000
	(0.186)	(0.379)	(0.236)	(0.535)	(0.000)	
*** p<0.01, ** p<0.05, * p<0.1						

Yildan-yilga mamlakatning tashqi savdosi oshib borar ekan, bu chegara bojxona postlariga yuklamalarni o'rinishini anglatadi va bojxona organlari postlarni qurish va rekonstruksiya qilish jarayonida kelgusidagi avtomobillar va yo'lovchilar oqimini inobatga olishlari lozim (3-jadval).

2-jadval. O'zbekiston bojxona postlari orqali orqali transport vositalari harakatining 2030-yilgacha prognoz ko'rsatkichlari.

Model		2025	2026	2027	2028	2029	2030
Jami_avto-Model_1	Forecast	3286967	3615358	3943750	4272141	4600533	4928925
	UCL	4605696	4934088	5262481	5590873	5919265	6247657
	LCL	1968237	2296628	2625019	2953410	3281801	3610192
Kunlik_avto-Model_2	Forecast	9005	9905	10804	11704	12604	13503
	UCL	12618	13517	14417	15317	16217	17116
	LCL	5392	6292	7191	8091	8991	9890

3-jadvalda Holt usuli asosida ishlab chiqilgan prognoz natijalari O'zbekiston bojxona tizimi orqali kirib kelayotgan avtomobillar sonining 2025–2030-yillar davomida muntazam oshishini ko'rsatmoqda. Jumladan, 2025-yilda bojxona postlaridan kuniga o'rtacha 9005 ta avtomobil o'tishi kutilayotgan bo'lsa, 2030-yilga kelib bu ko'rsatkich 13 503 taga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu esa besh yil ichida kunlik transport oqimining 50 foizdan ortiq ko'payishini anglatadi.

Prognoz oralig'ining yuqori va past chegaralari – ya'ni UCL (Upper Confidence Limit) va LCL (Lower Confidence Limit) – 9890 dan 17 116 gacha bo'lib, bu tafovut transport oqimidagi kundalik o'zgaruvchanlikni, mavsumiy yuklamalarni, shuningdek tashqi savdo talabidagi vaqtinchalik siljishlarni inobatga olgan holda aniqlangan. Holt usulining qo'llanilishi, ayniqsa vaqtga bog'liq trendli ko'rsatkichlar uchun yuqori aniqlik beradi.

Ushbu natijalar yaqin yillarda bojxona infratuzilmasi, xodimlar salohiyati va raqamli xizmatlar hajmini bosqichma-bosqich kengaytirish zaruratini anglatadi. Prognoz ko'rsatkichlariga asoslanib, bojxona postlari yuklamasining oshishi bilan bog'liq xavflarni minimallashtirish uchun oldindan strategik choralar ko'rish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Muxtasar qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi avtomobil chegara bojxona postlari kesimida amalga oshirilgan regressiya tahlillari bojxona nazorati va rasmiylashtirish jarayonlarini samarali tashkil etishda turli omillar muhim rol o'ynashini isbotladi. OLS, robust, log-lin, SEM va standartlashtirilgan SEM modellari asosida o'rganilgan asosiy ko'rsatkichlar ichida postda faoliyat yuritayotgan xodimlar soni har doim statistik jihatdan ahamiyatli omil bo'lib chiqqan. Bu esa resurslarning yetarli va sifatli bo'lishi bojxona postlari orqali harakatlanayotgan transport vositalari soniga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Ayniqsa, SEM modelida koeffitsient qiymati 5.093 ($p < 0,01$), standartlashtirilgan modelda esa 0,493 ($p < 0,01$) darajasida yuqori statistik ahamiyatga ega bo'lganligi bu bog'liqlikning kuchlilikini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, bojxona postlaridagi o'tkazish yo'laklari soni ko'rsatkichining salbiy va statistik ahamiyatli natijasi (SEM: -31.935 ; $p < 0,05$; standartlashtirilgan SEM: -0.293 ; $p < 0,1$) shuni anglatadiki, nazorat punktlarining fizik infratuzilmasi har doim ham o'tkazuvchanlik darajasini oshirmaydi. Bu holat yo'laklar sonining ko'pligi ularni samarali boshqarish tizimi mavjud bo'lmaganda kutilgan natijani bermasligini ko'rsatadi.

IKM va Z-portal kabi raqamli texnologiyalar esa barcha postlarda to'liq joriy etilmagani hamda funksional jihatdan yetarli darajada ishlamayotgani sababli statistik jihatdan ahamiyatli natija bermagan ($p > 0,1$). Shunga qaramay, istiqbolda ushbu tizimlarga e'tiborni kuchaytirish muhimdir. Chunki IKM va Z-portal orqali nazoratdan



o'tgan transport vositalari bojxona xodimlarining ish yukini 10–15 baravar kamaytirishi mumkin va bu inson resurslaridan boshqa nazorat shakllarida samarali foydalanish imkonini beradi.

Umuman olganda, barcha regressiya modellarning natijalari bojxona tizimida inson resurslari (xodimlar), infratuzilma (yo'laklar) va raqamli vositalar (IKM, Z-portal) o'rtasidagi uyg'unlik samarali faoliyat yuritish uchun zaruriy omil ekanini ko'rsatmoqda.

Ushbu natijalar quyidagi takliflarni ilgari surishga asos bo'ladi:

Logistika tizimini optimallashtirish va postlar yuklamasini muvozanatlashga qaratilgan infratuzilma kengaytirish siyosatini izchil davom ettirish;

Har bir postda IKM va Z-portal tizimlarini to'liq funksional holatda joriy etish va texnik xizmat ko'rsatishni barqaror yo'lga qo'yish;

Xodimlar sonini oqilona belgilash va ularning malakasini oshirish orqali inson resurslarining samarali taqsimotini ta'minlash;

Prognoz natijalarini inobatga olgan holda, postlar kesimida strategik boshqaruv rejalari ishlab chiqish va ularni milliy tashqi savdo siyosati bilan uyg'unlashtirish.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bojxona tizimini takomillashtirish O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan tashqi savdo strategiyasi va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muhim omillardan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi "Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF–57-son Farmoni.
2. Hector Hugo Juarez. The World Customs Organization: Past, Present and Future. Book, October 2021. DOI: 10.1007/978-3-030-85296-2
3. Luc De Wulf and José B. Sokol. Customs Modernization Handbook, The World Bank, Washington, D.C.
4. Odd-Helge Fjeldstad. Fighting Corruption in Customs Administration. World Bank, 2020.
5. Yu. A. Kroxina. Maqola: "Administrativnye protsedury i proizvodstva v tamojennom prave", <https://cyberleninka.ru/article/n/administrativnye-protsedury-i-proizvodstva-v-tamozhennom-prave>
6. I. V. Milshina. Maqola: "Ponyatie i sodержanie tamojennogo administrirovaniya v Yevraziyskom ekonomicheskom soyuze", <https://cyberleninka.ru/>
7. <http://lex.uz/docs/6567610>, murojaat sanasi: 2025-yil 1-mart.
8. A. Suyunov, N. To'raev. Bojxona ma'muriyatchiligi, TDIU, 2022. – 10-bet.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>